

7 – TOM 3 – SON / 2024 - YIL / 15 - MART

**TALABALARGA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI KOMPETENSIYAVIY
YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA FANI MISOLIDA)**

Xalmatova D.A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Pedagogika Uiversteti talabalarining rivojlanish sharoitida qanday kompetensiyaga ega bo'lishlari va amaliyotda qanday o'qitish metodlarini tanlashi hususida so'z boradi. Bo'lajak pedagoglar uchun egallanishi lozim bo'lgan pedagogiksifat va tayyorgarlik mazmuni yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *talaba, ijtimoiy-gumanitar, fanlar, kompetensiya, yondashuv, asos, o'qitish metodikasi, takomillashtirish, Kasbiy tayyorgarlik, professional, mutaxassis, kompetensiya.*

Kirish.

Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar pedagogga yangi talablarni qo'yadi. Bu keng ko'lamli umumiyl madaniy, professional va maxsus vakolatlarga ega, yangi kasbiy talablar va mehnat sharoitlariga munosib javob bera oladigan mutaxassis bo'lishi kerak. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan jamiyatda yashash va ishlashga tayyor bo'lgan professional o'qituvchini tayyorlash - bu kasbiy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan strategik vazifadir. Shuning uchun bugungi kunda ta'limning kompetensiya paradigmasi o'tish dolzarblashmoqda.

Respublikasining Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistnning Taraqqiyot O'zbekiston Stategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi tadqiqot ishimizga dasturul amal bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada oliy ta'lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri - bu bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdir. Kasbiy tayyorgarlik - zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi sifatida izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik o'z-o'zidan yuzaga kelmay balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyliги, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Hozirgi kunda Prezidentimizning tashabbuslari bilan mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, yosh avlodning har jihatdan yetuk, jismonan sog'lom, intellektual salohiyatli, ma'nana barkamol ulg'ayishi uchun, shuningdek yoshlarni qilgan mehnati, erishgan yutuqlariga

yarasha rag'batlantirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li - oliv ta'linda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv talabidan bilim va ko'nikmalarini alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallahni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O 'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarini takomillashtirishni talab etadi. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li - oily ta'linda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv tinglovchidan bilim va ko'nikmalarini alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallahni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O 'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarini takomillashtirishni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili.

Xalqaro tajribaga asoslangan, mahalliy pedagogika va psixologiya yutuqlarini e'tiborsiz qoldirib, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish o'zini oqlamaydi. Shuni ham yodda tutish kerakki, ta'limning integral konstruksiyalarini ilmiy asoslashda chet el olimlari P.Ya.Galperin, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn ishlariga tayanganlar. Professionallik va kompetentlik bir-biriga o'hshash bo'lsada, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balkishu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin. O'qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta'limdir.

Talabalarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg 'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo'naltirilgan fanlarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg' ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbek olimlaridan Abdullayeva B.S., Sarimova D.S. Pedagoglarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalananish bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirish, Ganiyeva S.A. Bo'lajak o'qituvchilarni ekologik kompitentligini rivojlantirish, Xasanov A.A. Muloqot kompetensiyasining tuzilmasi, Nurillayev B.N., Qurbanazarov I.T. Eksperimental masalalar orqali o'quvchilarda ijodiy va amaliy kompetensiyalarini shakllantirish,O.K

Musayev- Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirish(oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari misolida)ish olib borganlar.

Bu esa ushu fanlar misolida o'qitish metodikasini takomillashtirishga yo' naltirilgan ta'lim mazmuni va o 'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishdagi zaruriy tayanch va fanga oid kompetensiyalar tarkibini aniqlashtirish, tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirish modeli va metodlarini takomillashtirish zaruratini asoslaydi.Dotsent S.B.Qorayev,N.I Tirkashev o'zlarining tadqiqot ishlarida „Kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta'limning bir qator jihatlarini ko'rib o'tganlar,va kasbiy, amaliy kompetentlik turlari va ularning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritilganlar. Ular o'z tadqiqot ishlarida Zamonaviy yondashuvlar o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zaro integratsiyalash orqali o'quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadilar. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo'g'inlaridagi o'zgarishlarga ta'siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiysi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'qituvchilarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg' ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo' naltirilgan fanlarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishlarini bildirib o'tganlar.

Pedagogika fanlari nomzodi Kuliyeva Sh. X va fan o'qituvchisi Sharopova M.R. o'z tadqiqot ishlarida Bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'z tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.Ular tadqiqot ishi davomida Ta'lim jarayonida o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan tayanch kompetensiyalar har bir fan doirasida predmetga oid kompetensiyalarini shakllantirish bilan parallel ravishda olib borilishi maqsadga muvofiq degan fikrlarni ilgari surmoqdalar. Kuliyeva Sh.X. va fan o'qituvchisi Sharapova M.R larning ilmiy ishlarida bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyatli jihatlari keltirilgan. Kompetensiya tushunchasiga tavsif berilgan. Bo'lajak o'qituvchi kompetensiyasini rivojlantirishda e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlar asoslangan.

V.I.Baidenko I.A.Zimney metodologik tahlil darajalariga mos kelishi asosida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyatini ochib beradi, uning boshqa yondashuvlar bilan aloqasini asoslaydi. Oliyta'limga kompetensiyaviy yondashuvni

joriy etish muammolarini yanada rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar chiqaradi:

- kompetensiyaga asoslangan yondashuv — metodologik uchinchi (konkret-ilmiy) darajadagi yagona, o'ziga xos yondashuv.
- kompetensiyaga asoslangan yondashuvni izohlash mumkin tizimli yondashuv sifatida;
- ta'linda ko'p yondoshuv zamonaviy ta'limning eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi omillarida qu yd a gilar muhim o'rinn tutadi:

Psixologik tayyorlash asoslari.Bu asoslarda quydagilar negiz hisoblanadi:

- bola psixologiyasi bo'yicha bilim berish;
- bola psixologiyasini rivojlantirish bo'yicha metod bilan qurollantirish;
- bola bilan psixologik ishslashga tayyorlash.

Bunday yondashuv kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda psixologik omillarga tayanish imkonini beradi.

Pedagogik tayyorlash asoslari.Mazkur asoslarning eng muhim tayanchlarini quydagilar tashkil etadi:

- bolani aqliy rivojlantish asoslari bilan tanishtirish;
- bolani ijtimoiylashtirish asoslari bilan qurollantirish;
- bolani mакtabga tayyorlash asoslari bilan tayyorlash.

Mazkur pedagogik asoslar kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik tayanchlarini beradi.

Shunday qilib kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik omillari o'ziga xos xususiyatlari bilan muhim ahamiyatga ega.



1.rasm. Komp eten tsiya viy yondashuv asosida bo ‘ajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tarbiyalash tehnologiyasinin g nazariy modeli.

Tadqiqot tahlillari asosida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, o'qituvchining professional kompetentligi uning kasbiy (ta'limi, texnologik, metodologik) tayyoragarlik darajasi hamda o'quvchilarning bilim olishga motivatsiyaning kuchliligi bilan baholanadi. O'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining kabiy kompetentligini o'rganishni quyidagi uch yo'nalishda amalga oshirishni talab etadi: - tarkibiy tuzilishiga ko'ra (funksional savodxonlik, o'qituvchi, kasbiy kompetentlik tushunchalarining o'zaro bog'liqligi); - funksionalligiga ko'ra (amaldagi tadbipi); - genetik (faoliyatni o'tmish, bugun va kelajakda o'rganish asosida o'qituvchining kabiy kompetentligini rivojlantirish.

Ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlariga (maqsad, mazmun, usullar, shakl va vositalar, o'quv natijalari) muvofiq belgilangan yondashuvlar birgalikda mavjud bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Tadqiqotchilar kompetensiyaga asoslangan yondashuv ulardan biri bo'lib, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim jarayoniga hissa qo'shishini ta'kidlaydi, "...o'z mazmunini o'ziga xos shaxsiy komponentlar bilan sezilarli darajada kengaytiradi, bu esa uni insonparvarlikka yo'naltiradi".

Xulosa. Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, bugungi ta'limni modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kompetentsiyasini rivojlantirish va bu jarayonda quydagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofikq deb hisoblaymiz:

- pedagog kadrlarda kasbiy faoliyat va sohaga tegishli yangi kompetentsiyalar va ko'nikmalarini faol o'zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish;
- ta'lif jarayonida sifatga urg'u berish orqali pedagogik jarayonga ijodiy yondashuv va novatorlikni rivojlantirish;
- hamkorlikdagi ta'lif, loyihibiy va muammoli ta'lif elementlarini o'z ichiga olgan «tadqiqotlar orqali ta'lif» kontseptsiyasini amaliyotga keng joriy etish;
- ijodiy seminarlar, kastinglar, master klasslar tashkillashtirish orqali pedagoglar va talabalarni hamkorlikdagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va pedagoglarda tadkikotchilik faoliyatini tashkil etish va boshqarish sohasidagi zaruriy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;
- pedagoglarning innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus kurslarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

REFERENCES:

1. Allayorova, S. (2023). Theoretical and methodological basis of the cluster approach in education as the basis of pedagogical innovations. *Science and innovation*, 2(B5), 215-218.
2. Baxtiyorovna, A. S. (2023). Ta'lim jarayonidagi klaster yondashuvi hamda uning nazariy asoslari. *Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiysi*, 4(6), 28-34.
3. Allayorova, S. B., Mirsodiqova, R. L. (2023). Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'ini sifatida. Konferensiya, 1(1), 38-40.
4. Allayorova, S. B. (2023). Ta'lim klasterida pedagogik innovatsiyalar tushunchasi. *Mugallim*, 1(1), 219-223.
5. Allayorova, S. B. (2023). Ta'lim samaradorligini o'stirishda integratsiya sharoitining didaktik imkoniyatlari. *Mugallim*, 1(1), 213-218.
6. Allayorova, S. B. (2023). Ta'limda innovatsion uslublarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishning nazariy asoslari. *NamDU xabarlari*, 2(2), 453-460.
7. Allayorova, S. B. (2022). Ilmiy tadqiqot klasterning nazariy asoslari. Konferensiya, 3(3), 174-176.
8. Allayorova, S. B., Ximmataliyev, D. O. (2022). Ta'lim tizimida integratsiya pedagogik innovatsion klasteri. Konferensiya, 2(2), 125-127.
9. Allayorova, S. B. (2022). O'quvchilarda didaktik o'yinlar orqali kreativ fikrleshni shakllantirish. Konferensiya, 1(1), 431-433.
10. Allayorova, S. B., Janbayeva, M. S. (2022). Formation of Creative Activity in Students Through the Use of Problematic Education in the Educational Process. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(3), 110-114.
11. Аллаёрова, С. Б., & Кораев, С. Б. (2021). Ўқиши саводхонлигига қўйилаётган замонавий талаблар (PIRLS халқаро баҳолаш тадқиқотлари мисолида). *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1538-1541.
12. Allayorova, S. B. (2021). O'quvchilarning tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish. *Eurasian journal of academic research*, 1(8), 411-414.
13. Allayorova, S. B., Turg'unova, M. Q. (2020). Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari. Konferensiya, 1(3), 10-11.
14. Khalmatova, D. A. (2023). Improvement of independent creative activity of students based on competence approach. *Science and Innovation*, 2(5), 219-223.
15. Xalmatova, D. A. (2023). Aralash ta'limning pedagogik va psixologik asoslari. Konferensiya Ural, 1(1), 293-296.
16. Xalmatova, D. A. (2023). Pedagogical and psychological foundations of mixed education. Konferensiya Ural, 1(1), 297-300.
17. Xalmatova, D.A., Inomova, Z. I. (2023). Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish. Konferensiya Ural, 1(1), 289-293.

18. Alimjanovna, D. X., & Qizi, I. Z. U. (2023). Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini kompitensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish (oliy ta'lim muassasalari pedagogika misolida). *Science and innovation*, 2(Special Issue 5), 290-294.
19. Xalmatova, D. A. (2023). Aralash ta'limning pedagogik va psixologik asoslari. *Mugallim*, 1(7), 253-262.
20. Xalmatova, D. A. (2023). Aralash ta'limning pedagogik asoslari. *NamDu xabarlari*, 1(2), 574-579.